

Ozərbaycan Milli Fanlar akademiyasının 80 illigiga bag'ishlangan tantanali yig'ilishda O'zbekiston Fanlar akademiyasi prezidenti Shavkat Ayupov ishtirok etdi

Boku shahrida Ozərbaycan Milli Fanlar akademiyasının 80 illigiga bag'ishlangan tantanali yig'ilish bo'lib o'tdi. Ushbu yig'ilishda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi prezidenti, akademik Shavkat Ayupov ham ishtirok etdi. Tadbirda turli davlatlardan taniqli olimlar, akademiklar, fan va ta'lim sohasining yetuk namoyandalari qatnashdilar.

Yig'ilishni Ozərbaycan Respublikasi Prezidenti İlham Aliyev ochib berdi. O'z nutqida akademiyaning mamlakat ilm-fan rivojiga qo'shgan ulkan hissasini alohida ta'kidladi.

“Akademiya bu 80 yil ichida uzoq yo'lni bosib o'tdi, aytish mumkinki, u Ozərbayconda ilm-fan rivojida yetakchi rol o'ynadi”, — dedi İlham Aliyev.





Prezident, shuningdek, Ozarbayjon Milliy Fanlar akademiyasi jamoasini, barcha olimlarni hamda butun Ozarbayjon xalqini mazkur muhim sana — akademiyaning 80 yillik yubileyi bilan tabirladi.

Tadbirda soʻz olgan Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi prezidenti, akademik Shavkat Ayupov Oʻzbekiston olimlari nomidan Ozarbayjon Milliy Fanlar akademiyasini, uning barcha aʼzolari va xalqni ushbu tarixiy sana bilan samimiy muborakbod etdi.

U oʻz tabrigida Oʻzbekiston va Ozarbayjon oʻrtasidagi ilmiy hamkorlik yildan-yilga mustahkamlanib borayotganini, bu aloqalar ikki xalqning doʻstlik va birodarlik rishtalariga asoslanganini taʼkidladi. Shavkat Ayupov, shuningdek, kelgusida ham qoʻshma ilmiy loyihalar, tadqiqotlar va akademik almashinuv dasturlari yanada rivojlanishiga ishonch bildirdi.

Tadbirda Shavkat Ayupovga Ozarbayjon Milliy Fanlar akademiyasining 80 yilligi koʻkrak nishoni topshirildi. Bu ikki davlat ilmiy aloqalarining yuksak qadrlanishining ramzidir.

Ozarbayjon Milliy Fanlar akademiyasining 80 yilligida Oʻzbekiston Fanlar akademiyasi prezidenti Shavkat Ayupovning ishtiroki ikki davlat oʻrtasidagi ilmiy hamkorlik va doʻstona aloqalarning yanada mustahkamlanayotganidan dalolat beradi. Ushbu tadbir Ozarbayjon ilm-fanining yuksak salohiyatini va xalqaro miqyosdagi nufuzini yana bir bor namoyon etdi.